



**QADIMGI HINDISTON DINIY VA MADANIY MEROSI HAMDA
ZAMONAVIY JAMIYATGA TA'SIRI**

Ahmedshina Faniya Avzalovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori,

Shodmonqulov Shahriyor Abduaxat o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Hindistonning diniy va madaniy merosi insoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutishi, Hinduizm va Buddaviylik ta'limotlarining jamiyat axloqi, ruhiy kamolot va ijtimoiy tartib shakllanishidagi roli hamda adabiyot, san'at, me'morchilik va ilm-fan orqali zamonaviy jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qadimgi Hindiston, diniy meros, madaniyat, Hinduizm va Buddaviylik, adabiyot va san'at, me'morchilik, ilm-fan, jamiyat, axloqiy tizim, taraqqiyot tushunchasi

Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi insoniyat tarixida diniy-falsafiy tafakkur, ilmiy yutuqlar va madaniyat sohalarida ajralib turadi. Ushbu hududda shakllangan diniy e'tiqodlar, madaniy an'analar, san'at va ilm-fan rivoji nafaqat Hindiston jamiyatining ichki taraqqiyotiga, balki butun Osiyo va dunyo sivilizatsiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Hindiston merosi bugungi zamonaviy jamiyatning axloqiy, madaniy va intellektual rivojini tushinishda asosiy manba hisoblanadi.

Diniy e'tiqodlarning shakllanishi va ijtimoiy ahamiyati. Qadimgi Hindiston diniy hayotida markaziy o'rin Hinduizmga tegishli bo'lgan. Hinduizmning ildizlari arxaik e'tiqodlarda — tabiat kuchlariga, hayvonlarga va muqaddas ob'ektlarga sig'inishga borib taqaladi. Daraxtlar, tog'lar, suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabi timsollar qadimdan muqaddas sanalib, diniy marosimlarda muhim rol o'ynagan. Hinduizm kosmogoniyasi Brahma, Vishnu va Shiva timsollarida namoyon bo'ladi: Brahma dunyoni yaratgan va boshqaruvchi, Vishnu saqllovchi va himoyachi, Shiva



esa vayron qiluvchi xudo sifatida qabul qilingan[1]. Shu tariqa, diniy tizim jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni belgilab, dxarma tushunchasi orqali axloqiy me'yorlar va varna tizimini mustahkamladi. Ma'buda onaga sig'inish qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda Buddaviylik shakllandi. Siddxartxa Gautama (Budda) tomonidan asos solingan bu ta'limot inson azob-uqubatlarning sabablarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan. Buddaviylikning asosiy g'oyasi inson istaklaridan voz kechish orqali ruhiy poklanishga erishishdir. Buddaning "sakkiz qirrali yo'l" ta'limoti axloqiy poklik, to'g'ri xulq-atvor va ruhiy kamolotni targ'ib qilgan[2]. Shu tariqa, Buddaviylik inson ruhiy kamolotini, ijtimoiy barqarorlikni va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Adabiyot va diniy-falsafiy meros. Qadimgi Hind adabiyoti diniy e'tiqodlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Vedalar, epik dostonlar va Buddaviy matnlar asrlar davomida og'zaki an'ana orqali saqlanib kelgan. Vedalar diniy marosimlar, qurbonlik va kosmik tartib haqidagi qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan[7].

«Mahobhorat» (taxminan 100 ming misra) va «Ramayana» (24 ming misra) dostonlari qadimgi Hind jamiyatining axloqiy, siyosiy va diniy qarashlarini keng yoritib, milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu epik asarlar teatr, musiqa, tasviriy san'at rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan[3]. Qadimgi Hindiston adabiyoti lingvistika, mantiq va falsafiy tafakkurning rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Me'morchilik va san'at. Qadimgi Hindiston me'morchiligi va san'ati diniy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq edi. Dastlab yog'ochdan qurilgan ibodatxonalar vaqt o'tishi bilan saqlanib qolmagan, lekin Mauriya va Gupta davrlarida toshdan qurilgan inshootlar keng tarqaldi. Karle va Ellora g'or ibodatxonalari buddaviylik va hinduizm me'morchiligining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Karle g'or ibodatxonasi balandligi 14 metr, kengligi 14 metr, uzunligi esa 38 metrga yaqin bo'lib, markaziy zalda stupa va ko'plab haykallar mavjud. Ellora g'or ibodatxonasi Guptalar davrida boshlangan bo'lib, bir necha asrlar davomida



rivojlangan[4]. Ushbu inshootlar diniy marosimlar bilan uyg'unlashgan holda haykaltaroshlik va bezak san'atini o'zida mujassamlashtirgan.

Ilm-fan yutuqlari. Qadimgi Hindiston ilm-fan sohasida ham yuksak yutuqlarga erishgan. Matematika, astronomiya, tibbiyot va tilshunoslik sohalaridagi kashfiyotlar jahon ilmiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Aryabxata milodiy V asrda o'nlik sanoq tizimi va nol tushunchasini yaratib, chiziqli tenglamalarni yechish usullarini ishlab chiqqan. Shuningdek, u "pi" sonini hisoblashda muhim natijalarga erishgan. Qadimgi hind astronomiyasi Gang daryosi havzasida kuzatilgan yulduzlar va sayyoralar harakatini aniqlashda yuqori aniqlikni ta'minlagan[5]. Bu ilmiy meros keyinchalik Arab olimlari orqali Yevropaga tarqalib, zamonaviy ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

Jamiyatga ta'siri va zamonaviy ahamiyati. Qadimgi Hindiston diniy-ta'limiy merosi jamiyatning axloqiy, siyosiy va madaniy tuzilishini shakllantirishga xizmat qilgan. Hinduizm va Buddaviylik qadriyatlari bugungi kunda ham Hindiston jamiyatining axloqiy me'yorlari, ta'lim tizimi va madaniy qadriyatlarini belgilashda davom etmoqda. Epik adabiyot va diniy matnlar san'at, teatr, musiqa va arxitektura rivojiga ta'sir ko'rsatib, madaniyatlararo muloqotning uzviy qismiga aylangan[6]. Shu jihatdan Qadimgi Hindiston merosi zamonaviy jamiyat hayotida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Qadimgi Hindistonning diniy va madaniy merosi insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan noyob sivilizatsion hodisa hisoblanadi. Hinduizm va Buddaviylik ta'limotlari jamiyatda axloqiy me'yorlar, ruhiy kamolot va bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirdi. Adabiyot, san'at, me'morchilik va ilm-fan diniy qarashlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, boy madaniy merosni vujudga keltirdi. Ushbu meros bugungi kunda ham zamonaviy jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, madaniyatlararo muloqot va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azamat Ziyo. *Hindiston sivilizatsiyasi tarixi*. Toshkent: Sharq, 2002. 45-62-b.
2. Sh. Kamoliddin. *Qadimgi Sharq madaniyati*. Toshkent: O'qituvchi, 2011. 78-95-b.
3. M. Is'hoqov. *Diniy va madaniy meros*. Toshkent: Fan, 2008. 110-128-b.
4. A. Asqarov. *Qadimgi Hindiston tarixi va adabiyoti*. Toshkent: Universitet, 1999. 56-74-b.
5. B. A. Litvinskiy (tarjima.). *Osiyo sivilizatsiyalari tarixi*. Toshkent: Fan, 2005. 130-145-b.
6. N. Raxmonov. *Qadimgi Hindiston ilmiy merosi*. Toshkent: Sharq, 2010. 95-112-b.
7. S. Qodirov. *Hind madaniyati va diniy qadriyatlar*. Toshkent: Akademiya, 2015. 70-88-b.